Uzkimyosanoat

O‘ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

*2025-yil 25-avgust*

# Tarmoq korxonalari xodimlari o‘rtasida “O‘zkimyosanoat kubogi” musobaqalariga start berildi




Bugun RKTUning Toshkent shahridagi filialida “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari ishchi-xodimlari o‘rtasida mini-futbol, stol tennisi, voleybol, basketbol, gandbol hamda shaxmat bo‘yicha musobaqalar boshlandi.




Sport tadbirlari mamlakatimiz mustaqilligining 34 yillik bayramini munosib oʻtkazish, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori ijrosini taʼminlash, ishchi-xodimlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib etish va korporativ birdamlik ruhini shakllantirish maqsadida tashkil etildi.




Ta’kidlash joiz, mazkur turnirda 200 dan ortiq sportchi xodimlar ishtirok etishmoqda. Musobaqalarning keyingi kunlari basketbol, gandbol va erkaklar o'rtasida voleybol bo‘yicha bahslar bo‘lib o‘tadi.

Tadbirlar 28-avgust kunigacha davom etadi.


Uzkimyosanoat
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26




**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

*https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tarmoq-korxonalari-xodimlari-o-rtasida-o-zkimyosanoat-kubogi*